

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHALAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYA VA
KREATIVLIGI

moduli

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

“Sport psixologiyasi” 3 oylik qayta tayyorlash maxsus o‘quv kursi uchun (Oliy ma’lumotli sportchilar)

Toshkent – 2023

Mazkur oliy ma'lumotli sportchilar uchun "Sport psixologiyasi" bo'yicha qayta tayyorlash maxsus o'quv kursi modulning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2019-yil 16 - aprelda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan

Тузувчи: А.А. Акмалов - "Педагогика ва psixologiya" kafedrasini prof. , ped.f.n.

Taqrizchilar: O.E.Xayitov -"Педагогика ва psixologiya" kafedrasini, p.f.doktori, professor

F. Xo'jaev - Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyoti kafedrasini professori

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Педагогика ва psixologiya" kafedrasining 2023 yil 27-maydagi 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut ilmiy kengashining 20__yil "___" _____da o'tkazilgan yig'ilish ___-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

J.Pulatov

Modulning maqsadi va vazifalari

“Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi” modulining maqsadi: oliy ma’lumotli, sportchi pedagog kadrlar innovatsion yondoshuvlar asosida sport mashg’ulotlari jarayonlarni yuqori saviyada tashkil etishda, sohadagi hamkasblari va xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish va amaliyotga joriy etishlarida zarur bo’ladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarga kreativ, kompetençiyaviy yondoshuvlarida kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini takomillashtirish, ijodiy faolligini rivojlantirishdir.

“Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi” modulining vazifalari:

- tinglovchilarning zamonaviy kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini takomillashtirishda kreativ yondoshuv faoliyatlari;
- tinglovchilarning kompetentlik, kreativ faoliyatlari;
- jismoniy mashqlarni o’rgatish jarayoniga zamonaviy axborot - kommunikaciya texnologiyalarini samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- jismoniy tarbiya mashg’ulotlarda innovatsion texnologiyalar va ilg’or xorijiy tajribalarini o’rganish va o’zlashtirish;
- malaka oshirish kurslarida fan va sport ta’limidagi innovatsiyalar bilan integraciyasini ta’minlash.

Modulni o’zlashtirishga qo’yiladigan talablar

“Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan ishlar doirasida tinglovchilar:

- jismoniy tarbiya va sportning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini;
- jismoniy tarbiya mashg’ulotlarini o’tkazishga qo’yiladigan talablarni;
- “Universiada”, “Barkamol avlod”, “Umid nihollari” sport musobaqalari talablarini;
- jismoniy tarbiya metodlari, funkciyalari va vositalarini;
- ommaviy sport va sog’lomlashtirish - jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda zamonaviy uslublardan foydalanishni ;
- respublikamiz sportchilarining xalqaro musobaqalarda erishgan natijalarini;
- soha bo’yicha ilg’or xorijiy tajribalarni, xorijiy tildagi manbalardan foydalanishni;
- jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining fiziologik - psixologik asoslarini;
- jismoniy tarbiya mashg’ulotlarini tashkil etishda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini;
- yosh sportchilarni anatomik – fiziologik rivojlanish xususiyatlarini;
- jismoniy tarbiya mashg’ulotlarni rejalashtirishni;
- o’smir yoshidagi bolalar uchun ta’qiqlangan mashqlarni;
- gimnastika va engil atletika nazariyasi va uslubiyotini;
- harakatli o’yinlar turlarini va o’qitish uslubiyotini *bilishi* kerak.

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bola va o'smirlar organizmida yuzaga keladigan anatomik va fiziologik holatlar;
- jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va mashqlarning bola va o'smirlar organizmini umumiy rivojlanishiga ta'siri;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda uning vositalaridan foydalana olish;
- ommaviy sport va sog'lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkillashtirish shakllari va xususiyatlari;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi yuklamalarning yosh sportchilar organizmiga ta'siri, toliqish va tiklanish jarayonlari;
- harakatli o'yinlarni tashkil etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda qo'yiladigan talablar asosida tashkil etish;
- sport va sog'lomlashtirish - jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda zamonaviy uslublaridan foydalanish;
- soha bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish foydalanish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga asosan tashkil etish;
- zamonaviy jihoz va texnik vositalarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llash **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda zamonaviy sport anjomlaridan foydalanib tashkil etish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini soha bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda tashkil etish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda so'nggi yillarda erishilgan yutuqlardan foydalangan holda innovatsion texnologiyalarni qo'llash;
- ommaviy sport va sog'lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda zamonaviy uslublaridan foydalanish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va AKTdan foydalangan holda o'tkazish;
- zamonaviy jihoz va vositalarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llash **kompeteniyalarini** o'zlashtirganlari nazarda tutiladi .

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Pedagogning kasbiy kompeteniyasi va kreativligi” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi umumiy tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik blokidagi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning ta'limidagi o'rni

Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi moduli bo‘lajak sport psixologlarini o‘z kasbini puxta egallashi, barkamol inson bo‘lib etishida va etuk mutaxassis bo‘lib faoliyat ko‘rsatishida ularni zarur bilimlar bilan qurollantirish uchun xizmat qiladi.

Modulni o‘qitishda AKT va pedagogik texnologiyalar

Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi moduli dasturida ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, modulning dolzarb masalalari tinglovchilarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Mashg‘ulotlarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlashda. zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Aqliy hujum”, “Loyihalash”, "Klaster", "Bumerang", "Matbuot konferençiyasi" singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi va mashg‘ulotlardagi ma’lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.

Modul buyicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulo	Ko‘chma mashg‘ulo	
1.	Oliy ma’lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo‘yiladigan talab va vazifalar. Insonparvarlik	4	4	2	2		
2.	Sport mashg‘uloti jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetençiyasi va uning turlari	2	2	2			
3.	Sportda ta’lim sifatini oshirishda pedagog kompetentligini takomillashtirishda: kasbiy mahorati, pedagogik texnika usullari, shaxsiy - kasbiy malakalari, tarbiyachi sifatidagi mahorati, hissiyotini boshqara olishi	4	2		2		2
4.	Sportchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati. Didaktik, akademik, perçeptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, reflektiv va empativ qobiliyati	2	2	2			

5.	Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish	4	4	2	2		
Jami:		16	14	8	6		2

Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu. Oliy ma'lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo'yiladigan talab va vazifalar. Insonparvarlik.

Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari. Sport bo'yicha o'quv - mashq mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablar. Pedagogning sport ta'limi jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik. Pedagogning sport mashg'uloti jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

2-mavzu. Sport mashg'uloti jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetençiyasi va uning turlari.

Sport mashg'uloti jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetençiyasi va uning turlari. Pedagogning kompetençiyaviy piramidasi. Kasbiy kompetençiyani shakllanish bosqichlari. O'zini reflektiv faoliyatini tahlil qilish va kelgusi faoliyatini rejalashtirish. Pedagogning kasbiy, metodik faoliyatini takomillashtirishning maqsad, vazifalari: iste'dod, qobiliyatini namoyon etish va kamchiliklarini bartaraf etish omillarining nazariy-metodologik asoslari.

3-mavzu. Sportchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati. Didaktik, akademik, perçeptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyati.

Sportchi pedagog faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati. Sportchi pedagogning didaktik, akademik, perçeptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyati. Sportchi pedagogning imiji.

4-mavzu. Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu. Oliy ma'lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo'yiladigan talab va vazifalar. Insonparvarlik.

Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari. Sport bo'yicha o'quv - mashq mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablar. Pedagogning sport ta'limi jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik. Pedagogning sport mashg'uloti jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

2-mavzu. Sportda ta'lim sifatini oshirishda pedagog kompetentligini takomillashtirishda: kasbiy mahorati, pedagogik texnika usullari, shaxsiy - kasbiy malakalari, tarbiyachi sifatidagi mahorati, hissiyotini boshqara olishi.

Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo'llari. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogning mahorati va shaxsiy – kasbiy malakalari.

3-mavzu. Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Mustaqil tayyorgarlik mavzulari

Mustaqil tayyorgarlik yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajariladi. Bunda tinglovchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarni oliy ma'lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo'yiladigan talab va vazifalar, insonparvarlik, sport mashg'uloti jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetentligi va uning turlari, sportda ta'lim sifatini oshirishda pedagog kompetentligini takomillashtirishda: kasbiy mahorati, pedagogik texnika usullari, shaxsiy - kasbiy malakalari, tarbiyachi sifatidagi mahorati, hissiyotini boshqara olishi, sportchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati, didaktik, akademik, perzeptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyati, sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi, sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish mavzularini yoritishda mustaqil bajarib, taqdimot, himoya qiladilar.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN

INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol

ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Hamkorni tasavvur qilish” mashqi.

Guruhlar juft-juft bo‘lib bo‘linadilar (juftlikka notanish bo‘lgan insonlar birlashadilar). Besh daqiqa mobaynida har bir ishtirokchi o‘z hamkori bilan suhbatda u haqida ko‘proq axborotni olishi kerak. O‘zini-o‘zi taqdim qilishda quyidagi savollarni berishi mumkin: men o‘zimda nimani qadrlayman, men faxrlanadigan narsa, men nimani hammadan yaxshi bajaraman va boshqalar. Taqdimot quyidagicha tartibda o‘tadi: juftlikning bir a‘zosi stulda o‘tiradi, ikkinchisi uning orqasida turadi, birinchi odamning elkasiga qo‘lini qo‘yib, turgan odam o‘tirgan odam nomidan gapiradi, o‘zini sherigining nomi bilan ataydi. Gapirayotganning vazifasi o‘z taqdimotni bir daqiqa mobaynida gapirib o‘tishi kerak. O‘tirgan odamni taqdim etib bo‘lganidan so‘ng guruhdagi hohlagan odamga savol berishi mumkin, bularga esa u o‘tirgan odam nomidan javob beradi.

Pedagogik trening

Mashqlar va takrorlash asosida malaka, metod, muayyan ta‘sirlarni mustahkamlashning amaldagi ko‘rinishi;

Shaxsga intensiv ta‘sir ko‘rsatish metodlari majmui;

Guruh va shaxsga ta‘sir ko‘rsatish amaliyoti; (muayyan chegaradagi) ta‘lim shakli.

Pinbord (inglizchadan: pin-mustaxkamlash; board-doska)

Bu uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan bog‘lanib ketadi.

Afzallik funksiyalari - rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi;

O‘z fikrini fakat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Pinbord metodi” - vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha ta‘lim oluvchilarga o‘z nuqtai-nazarini ifodalashni taklif etadi. Pinbord metodidan yangi mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanamiz.

Metodni quyidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: tinglovchilarni kichik guruhlariga ajratiladi va vazifalar beriladi. Guruhlarga vazifalarni bajarishlari uchun rangli kartochkalar va markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a‘zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi, qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Har bir fikr alohida bitta qog‘ozga yoziladi. Keyingi fikr yana bir boshqa rangli kartochkaga yoziladi. Shu tariqa, nechta fikr bo‘lsa, shuncha rangli kartochka ishlatiladi. Vazifani bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifa bajarib bo‘lgandan keyin, rangli kartochkalar magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Taqdimotga 3-5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi.

“Pinbord” metodi bo‘yicha kichik guruhlariga quyidagicha vazifa beriladi:

1 – guruhga: “Pedagogik , darslik adabiyotlardagi “Jismoniy tarbiya” ta’rifini izohlang?

2- guruhga: O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonunidagi: “Jismoniy tarbiya”ga berilgan ta’rifni izohlang.

3 – guruhga: O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonunidagi: “Jismoniy tarbiyalash”ga berilgan ta’rifni izohlang.

Jadvalni “Pinbord” metodi asosida to‘ldiring

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetentligi imidjining tarbiyaviy ahamiyati					
Pedagog va o‘quvchi munosabati		Pedagogik kompetentlik		Pedagog imidji	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

F – FIKRINGIZNI BAYoN ETING

S – FIKRINGIZNI BAYoNINI SABABI

M - SABABLARINI ISBOTLASHAG MISOLLAR

U – FIKRLARINIGIZNI UMUMLASH TIRING

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Raqamli kartochkalar orqali 3 ta kichik guruhlar shakllantiriladi. Har bir kichik guruhga tarqatma materiallar beriladi. Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

“FSMU” metodida

“Jismoniy tarbiya – inson salomatligi garovidir” mavzusi bo‘yicha topshiriqlar.

1-guruhga savol:

O‘quvchi shaxsning barkamol shakllanishida “ jismoniy tarbiya omili”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

2-guruhga savol:

O‘quvchi shaxsning jismoniy rivojlanishida “muhit omili”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

3-guruhga savol:

O‘quvchi shaxsning shakllanishida “irsiyat omili”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.


Har bir kichik guruh berilgan savollar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Topshiriqni bajarishga 3-5 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng, kichik guruhlardagi topshiriq varaqalari yig‘ib olinadi. So‘ngra kichik guruhlar o‘z topshiriqlariga berilgan javobni taqdimot qilishadi. Har bir taqdimotchiga 1-2 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir taqdimotdan so‘ng savol-javob orqali muhokama bo‘lib o‘tadi. Boshqa kichik guruh a‘zolari o‘z-fikr mulohazalari orqali berilgan javoblarni to‘ldirishi yoki takliflar berishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi esa har bir taqdimotdan so‘ng FSMU bo‘yicha berilgan savolga keltirilgan javoblarni to‘ldiradi va umumlashtiradi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza o‘tkaziladi.

“Keys-stadi” metodi

Кейс-стади ҳақида тушунча



Кейс-стади инглизча case - аниқ вазият, stadi – таълим сўзларининг бирикувидан ҳосил қилинган бўлиб, аниқ вазиятларни ўрганиш, таҳлил этиш ва ижтимоий аҳамиятга эга натижаларга эришишга асосланган таълим методидир. Мазкур метод муаммоли таълим методидан фарқли равишда реал вазиятларни ўрганиш асосида аниқ қарорлар қабул қилишга асосланади. Агар у ўқув жараёнида маълум бир мақсадга эришиш йўли сифатида қўлланилса, метод характериға эға бўлади, бирор бир жараёни тадқиқ этишда босқичма-босқич, маълум бир алгоритм асосида амалға оширилса, технологик жиҳатни ўзида акс эттиради.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What

Кейс-методини амалга ошириш босқичлари:



“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	---

Keys. Sport sohasidan beriladi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma‘ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma‘lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Pedagoglik layoqati” mavzusida tinglovchilarga 20 ta testni “Assesment” texnologiyasida ishlash taklif qilinadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod mavzu bo‘yicha sportdagi tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- **ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;**
- **o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);**
- **o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma‘no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;**
- **belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;**

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Mavzu: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Pedagog	Muallim, o‘qituvchi. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya beruvchi shaxs. Ta’lim-tarbiya jarayonini o‘rganuvchi va bu jarayonni boshqarish muammalari bilan shug‘ullanuvchi shaxs.	
Kompetensiya	Sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka	
Pedagogik nazokat	O‘qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.	
Samimiylik	Atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat	
Insonparvarlik	Insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to‘g‘risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxurlik qilishni ifodalovchi tushuncha.	
Pedagogik texnika	O‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, ta’lim tarbiya oluvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi.	

Imidj	Aniq bir insonga beriladigan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki ijtimoiy ob'ekt qiyofasidir	
Madaniyat		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

НАЗАРИЙ МАТЕРИАЛЛАР

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MA'RUZA MATNLARI

1 - mavzu: Oliy ma'lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo'yiladigan talab va vazifalar. Insonparvarlik.

Reja

- 1. Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari.**
- 2. Pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.**

Tayanch iboralar: Pedagog, kompetenüiya ,pedagogik nazokat, samimiylik, insonparvarlik. Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari. Sport bo'yicha o'quv - mashq mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablar.Pedagogning sport ta'limi jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik. Pedagogning sport mashg'uloti jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

1. Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari.

Pedagog – ta'lim – tarbiya jarayonida maxsus ma'lumot bo'yicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod o'z sohasi bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini quyi avlodga o'rgatuvchi ijodkor shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning 44- moddasi "Pedagogik faoliyat shug'ullanish huquqi" bo'lib unda: "**Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va ma'naviy - axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.**" – deb e'tirof etilgan.

Pedagogik darslik va qo'llanmalarda: **Pedagog** – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan ta'lim – tarbiya ishlarini amalga oshiruvchi ijodkor mutaxassis.Pedagog - pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, ma'naviy - axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi - bolalarni sportga muhabbatni singdirish, o'sib kelayotgan avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, bolalarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.Pedagogika faning bosh masalalaridan biri - tarbiyadir.

Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axlokiy kadriyatlar va dunyokarashini shakllantirishga karatilgan tizimli jarayon;

Ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, kobiliyatini rivojlantirishga karatilgan tizimli jarayon;

O'zbekiston Respublikasining "**Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida**" 2015 yil 4 – sentyabrdagi yangi tahrirdagi Qonuning 11- moddasida: O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta'limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlarida: Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalar sportini rivojlantirishni va ularning sport bazasini mustahkamlashni ta'minlaydi; bolalar va o'quvchi yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini tashkil etadi; jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etadi; xalq ta'limi tizimining ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida sport musobaqalarini ("Umid nihollari") tashkil etishda ishtirok etadi; bolalar sportining moddiy-texnika va resurs bazasini rivojlantirish choralarini ko'radi; bolalarga sportga muhabbatni singdirish, o'sib kelayotgan avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, bolalarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi – deb e'tirof etilgan.

Mazkur qonunning 3 – moddasi, Asosiy tushunchalarda:

Jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi;

Jismoniy tarbiyalash — yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi — o'z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o'tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o'tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Ommaviy sport — sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashg'ulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sog'lomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etishga doir qismi;

Sport tadbirlari — sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar;

Sport turi — jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo'lib, u insonning sport musobaqalariga o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'rish bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo'ladi;

Havaskorlik sporti — sportning aholini ixtiyoriylik asosida ommaviy sportga jalb qilish orqali odamlar sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan qismi;

Sport — odamlarning muayyan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo‘lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

Trener — trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan hamda o‘quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs.”- deb e‘tirof etilgan. (*Trener – inglizcha train – o‘zbek tilida tarbiyalovchi, o‘rgatuvchi ma’nolarini anglatadi.*)

Trening - Mashqlar va takrorlash asosida malaka, metod, muayyan ta’sirlarni mustahkamlashning amaldagi ko‘rinishi; shaxsga intensiv ta’sir ko‘rsatish metodlari majmui; guruh va shaxsga ta’sir ko‘rsatish amaliyoti; (muayyan chegaradagi) ta’lim shakli.

Pedagogika, psixologiya darsliklarida yosh avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari etib, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalar bilan bir qatorda **“Jismoniy tarbiyaga”** alohida e’tibor qaratilgan.

“Jismoniy tarbiya” - yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom o‘shishlarini, baquvvat bo‘lishlarini , aqliy , jismoniy mehnatga shuningdek Vatan himoyasi uchun qo‘rqmas, jasur, harbiy bilimlardan biladigan qilib tayyorlash oliy maqsadidir.

Pedagogika tarixida inson tarbiyasi haqidagi g‘oyalar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalar va darslik va o‘quv qo‘llanmalarda aks etgan. Pedagogikaning fan sifatida shakllanib, boyib borishida Sharq va G‘arb qomusiy olim-pedagoglarining o‘rni kattadir. Suqrot, Aristotel, Platon ijodlarida, ayniqsa Platonning “Davlat” asarida “Farzandlariningizning ilm va adabini o‘zingizning ilm va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlang, chunki ular sizning zamonangizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir”- degan.

Ajdodlarimiz jismoniy, axloqiy tarbiyada Shiroq, To‘maris, Alpomish, Murodxon, Ravshan kabi afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlardan foydalanganlar, ular asosida yoshlarni eng yaxshi an’analar ruhida tarbiyalaganlar.

Xalqning vatanparvarlik, elga hurmat, uning tinchligi, osoyishtaligi uchun g‘amho‘rlik qilish, ma’rifatli bo‘lish, ma’naviy kamoloti uchun qayg‘urishi dostonlarda yorqin ifodalangan.

Alpomish dostonidagi ijobiy qahramonlar: Alpomish, Barchin, Qorajon, Qaldirg‘och, Qultoy va Yodgor obrazlarida sevimli yor,oila va urug‘ birligi yo‘lida ko‘rsatilgan mardlik, jasurlik, qahramonlik, vatanparvarlik, do‘stlik va samimiyat ulug‘langan.

Sharqda “Ikkinchi muallim” (Muallimus soniy) Abu Nasr Forobiyning yoshlarning ta’lim- tarbiya jarayonini - tajribali o’qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarib turilishi va ma’lum maqsadlarga yo’naltirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Forobiyning ta’kidlashicha, ta’lim - tarbiya berish ikki usulda bo’ladi. Birinchi usul “Amaliy fazilatlar va san’at va ularni bajarishga odatlantirish bo’lib, bu odat ikki xil yo’l bilan hosil qilinadi:

Birinchi yo’l- qanoatbaxsh so’zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so’zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g’ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul - majbur etish yo’lidir. Bu usul gapga ko’nmovchilarga nisbatan qo’llaniladi. Ammo ulardan qaysi biri nazariy bilimlarni o’rganishga astoyidil kirishsa va kasb – hunarlarni, juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo’lsa, uni majbur etmaslik kerak.

Demak, 1- usul san’atni rag’batlari bilan o’rganuvchilarga qo’llaniladi. 2- usul majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun qo’llaniladi.

Ibn Sinoning “Tadbir almazil”, Umar Hayyomning “Ruboiy”larida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma” asarlarida jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor berilgan.

“Qobusnoma”dagi “Farzand parvarish qilmoq zikrida” bobida “...Ulug’roq bo’lg’ondan so’ng, agar raiyat bo’lsang, unga hunar va kasb o’rgatg’aysan, agar sipoh ahlidin bo’lsang, sipoh ilmuni o’rgatg’aysan. Bularni bilg’ondan so’ng shinovarlik, ya’ni suvda yuzmakni o’rgatg’aysan... Suvda yuzmakdurkim, bunday ishni farzandim uchun hamma odamlar qila olmas.”-degan.

Alisher Navoiy ijodida yoshlarning ta’lim- tarbiyasida varzish (mashq qilishga odat, ko’nikmalar) to’g’risidagi fikrlarini , yaratgan asarlaridagi badiiy obrazlar mazmun - mohiyatini o’qituvchilar lug’atlardan foydalanib jismoniy tarbiya bilan shug’ullanuvchilarga tushuntirsalar, asar qahramonlaridagi ijobiy fazilatlarini to’g’risida yaxshi tasavvurlar paydo bo’ladi.

Jadid bobolarimizdan Abdulla Avloniyning ”Turkiy Guliston yoxud ahloq” asaridagi badan tarbiyasiga oid fikricha: “Sog’lom fikr, yaxshi axloq, ilm- ma’rifatga ega bo’lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”- degan tarbiyaning haqiqiy ildizlarini ko’rishimiz mumkin.

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy - metodik asoslarda tashkil etish, o’quvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida ta’lim jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo’lgan, o’zini-o’zi va o’z faoliyatini o’zi tahlil qiladigan va ob’ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo’lgan, shuningdek, axborotlar to’plash, tahlil

qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni **kompetentli** deyiladi.

Sport bo'yicha o'quv - mashq mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablar.

Sport ta'limi muassasalari pedagog va psixologlarining aksariyati ta'lim jarayonlarni tashkil etish va boshqarishdagi asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini DTS talablari asosida tashkil etish va nazorat qilish, o'quvchilarga o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlarni etkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Oliy ma'lumotli sportchi pedagoglarning(keyingi o'rinlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi) kompetençiyaviy yondoshuvlarida quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lim-tarbiyaviy jarayonining va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;
- maqsadga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l - yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;
- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra taqsimlashni rejalashtirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;
- ta'lim -tarbiya jarayonda o'quvchilarning sub'ektivligini ta'minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish;
- dars jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;
- ta'lim – tarbiya jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;
- ta'lim muassasalari, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;
- pedagogik jarayonlarda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;
- DTSni amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish;
- o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;
- o'quvchilar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

- o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Malaka oshirish kurslarida sportchi pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining komponentlaridan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlar jarayonida, "inson - inson" munosabatlari shaklida birinchi navbatda ta'lim muassasasi rahbarlarining pedagoglar bilan "rahbar - pedagog", pedagoglarning o'z o'quvchilari bilan "pedagog-o'quvchi", pedagoglarning o'z kasbdoshlari bilan "pedagog-pedagog" munosabatlarida o'zaro bevosita ta'sir mavjudligini o'rganadilar.

Malaka oshirish kursi davomida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari, jismoniy tarbiya darslarida sog'lom shaxsini shakllantirishdagi tarbiya turlari, shakllari, usullari va vositalari bo'yicha kasbiy kompetençiyasiga kreativ yondoshuvlarni takomillashtiradilar.

Zamonaviy didaktik talablar o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanishi, o'ziga ijodiy shart – sharoitlar yaratishi, innovatsion yondoshuvlarga oid ilmiy – metodik ishlanmalarni tegishli tarmoqlardan izlash, foydalanish o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi.

2. Pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchining psixologik – pedagogik tayyorgarligi, kasbga munosibligi (kompetençiyasi) , shaxsiy xususiyatlarining **professiogrammasi**:

O'qituvchilik ixtisosining xususiyatlari uning professiogrammasida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari;
2. O'qituvchining pedagogik – psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
3. Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;
4. Ixtisosga oid metodik tayyorgarligining mazmuni;

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

Mafkuraviy, ijtimoiy, siyosiy sohada:

1. Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod;
2. Ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish;
3. Ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash;
4. Ijtimoiy - siyosiy faollik.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvençiyani, "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturi”, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, “Bolaga do‘stona munosabatda bo‘lish” dasturi, sport sohasida uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy atamallari va tushunchalarini bilish.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lishi bilan bir qatorda pedagogik, psixologik tayyorgarlik ham etarli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Bilish qobiliyati - o‘quv predmetining tegishli sohalariga oid bo‘lib, bunda o‘qituvchi jismoniy tarbiya o‘quv predmetini o‘quv kursini DTS hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, unga qiziqishi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajara olishi kerak.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o‘quv va mashq qoidalarini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon va amaliy ko‘rsata olishi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashga qiziqish uyg‘otishdir.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati- o‘quvchining, ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek, imo- ishora vastasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu jismoniy tarbiya o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his – hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishini va o‘z ishini to‘g‘ri uyushtirishni nazarda tutiladi.

6. Obro‘ orttira olish qobiliyati - o‘quvchilarga bevosita emoional- irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olishdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining o‘quv predmetini yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va boshqa ijobiy xislatlar. O‘quvchilar qo‘pollik qilmaydigan, qo‘rqitmaydigan, to‘g‘ri talab qo‘ya oladigan o‘qituvchini juda hurmat qiladilar. O‘qituvchining bo‘shanligi, sabotsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati – o‘quvchilar bilan pedagogik nuqtai nazardan samimiy, do‘stona, samarali o‘ munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik muloqot madaniyatini bildiradi.

8. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday mutaxassis bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday ijobiy fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan bashorat qila olishida ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizimga, ta‘lim - tarbiyaning qudratiga bog‘liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilari bilan izohlanadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi saboqni bayon qilish mazmuni va

shaklini, o'z fikrini(yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsiz - intizomsizlik hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z xatti – harakatlarini ham boshqarib boradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari yana bir qancha ijobiy sifatlarga - aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ham ega bo'lishi kerak aks holda o'rta pedagogik darajadan yuqoriga ko'tarila olmaydi

Pedagogika oid darsliklarda “**Jismoniy tarbiya**”ga quyidagicha ta'rif berilgan:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositalarida beriladi. Jismoniy tarbiya vositasida o'quvchilarga odamning anatomiyasi, fiziologiyasi va gigeniyasiga oid tizimli bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

...**Jismoniy tarbiya** axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi – yoshlarda bo'shanglik, o'z kuchiga ishonmaslik, dangasalik va boshqa axloqiy kamchiliklardan qo'rqqoq bo'lib qolishi Vatan himoyasi uchun yaroqsiz bo'lib, ulardan botirlar etishib chiqmagani to'g'risida tarixiy m'lumotlar bor.

Jismonan chinqqan mard kishi mehnatda ham o'zini ko'rsata oladi, ularda haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof kabi ijobiy hislatlar namoyon bo'ladi. Mard – maydon odami, u kurashib yashaydi. Xalqimizning qahramonlik, mardlik tuyg'usi ifodalangan ko'plab rivoyatlar, dostonlarida xalqning qahramonligi, el- yurt farovonligi yo'lidagi mardliklaridan biri “Alpomish” dostonida o'z ifodasini topgan.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi vazifasi: o'quvchi – yoshlarni jismonan tetik, xushchaqchaq, mehnat sevar, jasur, vatanparvar, axloqan pok, ma'naviyatli barkamol bo'lishi uchun o'zining ilmiy, metodik, kasbiy mahorati bilan tarbiya berishdir. Aksincha nomardlarda yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, razillik, yuzsizlik, hiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi illatlar uchraydi.

Pedagogik mahorat nima? Uni qanday egallash mumkin?

Pedagogik mahorat - pedagogning (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyliligi, nazokati va h.k.) va **kasbiy** (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, erudiniyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, yoshlarni ta'lim va tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogik mahoratli jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarini o'zida tarkib toptirishi lozim.

2- Mavzu Sport mashg‘uloti jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasi va uning turlari

Reja:

2.1. Pedagog faoliyati kontekstida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari.

2.2. Professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.

Tayanch iboralar: pedagogik faoliyat, kompetensiya, kompetentlik nazariyalari, kompetensiya turlari, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya piramidasi.

2.1. Pedagog faoliyati kontekstida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari

Zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. **Kompetensiya** – xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislariga malakaviy talablarni quyuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda “**tayanch kompetensiya**”lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta’minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o’ziga xos xarakter kasb etadi.

Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari

“Ijtimoiy psixologiya” va “ijtimoiy pedagogika” fanlariga daxldor so‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, “**kompetentlik nazariyasi**”, asosan, **to‘rt bosqichli** jarayonni, ya’ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o‘tish jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi. Biz buni batafsilroq tarzda psixologik nuqtai nazardan bayon etadigan bo‘lsak quyidagicha tahlilning guvohi bo‘lamiz:

“**Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi**”: Sohaning etakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs “**Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman**” darajasida turadi.

Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo‘qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga bo‘lgan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o‘rinda yana bir misol: ilk go‘daklik chog‘larida bola engil mashinada bir erdan boshqa erga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o‘zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o‘zining shaxsiy kompetentligini angalay olmaydi.

Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi: Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug‘ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich **“Men bilmasligim haqida bilaman”** deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o‘smir, biron-bir kishidan o‘zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to‘g‘ri keladi va bunda o‘zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda “o‘z ustida” qayg‘uradi.

Anglangan kompetentlik bosqichi: Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o‘qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o‘qituvchining xatti-harakatlarini o‘zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini angalaydi yoki **“nima bilishi haqida biladi”**. Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yo‘lga chiqishdan oldin mashinani to‘g‘ri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o‘ziga-o‘zi quyidagilarni pichirlaydi yoki xayolidan o‘tkazadi: “Hozir yonni yoki orqani ko‘rsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli to‘siqqa signal beraman, borishim zarur bo‘lgan ob’ektni joylashishi ko‘ra yoki harakat traektoriyasi bo‘yicha o‘ngga-chapga burilaman va hokazo”.

Anglanmagan kompetentlik bosqichi: Anglanmagan kompetentlikda shaxs o‘zidagi mavjud bilim va ko‘nikmalarni shu darajada ko‘p qo‘llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o‘ylamasdan bosadigan bo‘ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo‘lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: **“Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman”**, – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni o‘rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma’lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning “qoningiz va jismingizga” singib ketgan bo‘ladi.

Demak, yuqoridagi to‘rt bosqichli nazariyada ilgari surilgan g‘oyaga asoslanadigan bo‘lsak, **kompetentlik** – ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun, ya’ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish(o‘qish)-faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi. N.A. Muslimov (2009) kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning samarali zamonaviy o‘quv-metodik majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlarni olib borar ekan, o‘z navbatida, kompetentlikni ettita turga bo‘lib o‘rganadi. Olimning fikricha,

1. global kompetentlik;

2. ijtimoiy-madaniy kompetentlik;
3. ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik;
4. axborot olishga kompetentlik;
5. kommunikativ kompetentlik;
6. o'quv-bilishga oid kompetentlik;
7. amaliy faoliyatga oid kompetentlik mavjud bo'lib, bu o'z navbatida, ta'lim

muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Masalan, olim, o'qituvchining ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunishi qobiliyatini, mustaqil hayot yo'lini topa olishini, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab etishini, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilashi hamda qaror qabul qilish malakasini mavjudligini hamda dunyoqarashining kengligini *global kompetentlik*, deb ta'rif beradi.

Fikrimizcha, shu jihatdan olib qaraganda ham, *kompetentlik* – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Bunday baholanish, o'z navbatida, tashkilot faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

Kompetensiyalarning aniqlanishi

Kompetensiyalar – (1) tashkilot miqyosida qabul qilingan standart xulq-atvor; (2) menejering tashkilot miqyosida qabul qilingan standartlarga muvofiq ish ko'ra olish qobiliyati.

Kompetentlik (bilimdonlik) – (1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik; (2) ishda kerakli natijalarni qo'lga kiritish yuzasidan zarur qarorlarni qabul qila olish qobiliyati.

Kompetensiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmui bo'lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo'lida xodimning o'z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda, shaxs xulq-atvorini o'lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar).

Ko'pincha kundalik muloqotda biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o'zgaralar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga etkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi.

Umuman olganda, kompetensiya **muayyan shaxs** doirasida o'rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo'lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo'lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, **tashkilot** miqyosida esa hamkasblarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to'lmay qolgan "bo'shliq"larni to'ldirishda asqotadi.

Trenerning kompetensiyasi

Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida maktab bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir trener-o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ta muhim jarayondir.

"**Kompetensiya**" tushunchasi lotincha **competere** degan so'zdan olingan bo'lib, *mos kelmoq* ma'nosini beradi.

Kompetensiya – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati.

Kompetentlik (lotincha "competens" – "layoqatli", "qobiliyatli") deganda shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi.

Kompetentlik – *aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.* Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko'nikmaga tayanib muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Boshqacha qilib aytganda, **kompetensiya** – zarur (ko'zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o'laroq, kompetensiya faoliyat jarayonida namoyan bo'ladi va aniqlanadi.

Amalda **kompetentlik** – bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati.

Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezon (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham, o'zini tuta bilishning namoyon bo'lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo'llanilishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta'kidlash joizki, "kompetentlik" va "kompetensiya" o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog'liq emas.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida trener-o'qituvchilarga belgilanayotgan **zamonaviy talablar**:

✓ ta'lim va yoshlar to'g'risidagi Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib etadigan hamda targ'ibot qiladigan;

✓ o'z sport turini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;

✓ o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan;

✓ pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va trener-o'qituvchilar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, reflektiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida reflektiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda trener-o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki trener-o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning sport faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, trener-o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, sport ta'limi muassasasi trener-o'qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila

olish, shuningdek, sport ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular o'qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Kompetensiyani 4 turga bo'lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus (2.1-rasm).

Shaxsiy kompetensiya:

- ✓ insonparvarlik;
- ✓ bolalarni sevishi va mehribonlik;
- ✓ adolatli bo'lish;
- ✓ talabchanlik;
- ✓ bag'rikenglik;
- ✓ mas'uliyatlilik va hokazo.

Kasbiy kompetensiya:

- ✓ ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- ✓ tegishli sport turi uslubiyoitini takomillashtirish;
- ✓ axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- ✓ ta'lim jarayonini boshqarish;
- ✓ o'quvchilar bilimi va yutuqlarini ob'ektiv baholash;
- ✓ o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- ✓ o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;
- ✓ pedagogika va psixologiyani bilish;
- ✓ o'z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.

Kompetensiya turlari

Umummadaniy kompetensiya:

- ✓ kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- ✓ madaniyatli bo'lish;
- ✓ umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ✓ boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

Maxsus kompetensiya:

- ✓ sport turining nazariyasini bilish;
- ✓ sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- ✓ sport turining texnikasini o'quvchilarga o'rgatish;
- ✓ sport turining taktikasini o'rgatish va hokazo.

Sport faoliyati turlari bo'yicha trener-o'qituvchi, quyidagi umumiy qobiliyatlarni o'z ichiga qamrob olgan umumiy **malaka kompetensiyalarga** ega bo'lishlari kerak, jumladan:

- ✓ kelajakdagi kasbining mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunish,

unga qiziqish ko'rsatish;

- ✓ o'z faoliyatini tashkil etish, kasbiy vazifalarni echish usullarini aniqlash, ularning samaradorligini va sifatini baholash;

- ✓ noan'anaviy holatlarda tavakalchilik (xavf-xatar)ni baholash va qarorlar qabul qilish;

- ✓ kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda kasbga oid vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan axborotni izlash, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish;

- ✓ kasbga oid faoliyatni takomillashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- ✓ hamkasblar va ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish, kollektivda va jamoada ishlash.;

- ✓ jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning o'quv-mashg'ulotlari jarayonlari sifati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ishlarini va nazorat qilish hamda jismoniy tarbiya-sport tadbirlarini tashkil etish maqsadlarini belgilash;

- ✓ shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanish, ongli ravishda malakali oshirishni rejalashtirish.

Trenerning kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog'liq bo'ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo'lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik sport ta'lim muassasasi trener-o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni sport ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

2.2. Professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.

Sport ta'limi muassasasi o'qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular Trenerning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

O'qituvchi kasbiy kompetentlikka quyidagi **bosqichlarda** erishishi mumkin:

- ✓ pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;

- ✓ maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;

- ✓ o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;

- ✓ o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda

bo'lish;

- ✓ o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib

borish;

- ✓ o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;

✓ pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, yosh sportchilar orasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;

✓ murakkab va muammoli vaziyatlarda yosh sportchini ruhlantirib borishi;

✓ trener-o'qituvchi va o'quvchi orasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish;

✓ ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Autopsixologik kompetensiya – bu o'qituvchidagi shunday malakalar majmuiki, o'z kasbiy hamda shaxsiy sifatlarini diagnostikalash, ya'ni o'zini o'zi diagnostika qilish, o'zini o'zi tuzata olish (korreksiyalash), o'zini o'zi takomillashtira olish, o'ziga-o'zi motivatsiya bera olish, har qanday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixologvistik kompetensiyalar bilan bog'liq qobiliyatdir.

[1] **Shug'ullanuvchiga yondashuv** – o'qituvchining ichki va tashqi – o'quvchi-sportchining talabini qondirishdan manfaatdor ekanligini ko'rsata olish xususiyati.

Ushbu kompetensiyaga ega trener-o'qituvchi:

- ✓ o'quvchi-sportchining muammolarini tez va samarali hal etadi;

✓ o'quvchi-sportchining natijadan qanchalik darajada qoniqayotganligini aniqlash maqsadida, u bilan suhbat o'tkazadi;

✓ o'quvchi-sportchilarga, ularning talablarini qondirish uchun birgalikda hamkorlik qilishga tayyorligini bildiradi;

✓ o'quvchi-sportchining qoniqish darajasini o'lchash va aniqlash usullarini topadi hamda ijobiy ta'sir qilish yo'li (muomala manyorasi)ni yaratadi.

[2] **Diagnostik ma'lumotlarni yig'ish** – trener-o'qituvchining vaziyatga aniqlik kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bilish; bunday ma'lumotlarni tegishli manbalar yordamida qidirishni amalga oshira olish (savolni shunday berish kerakki, ma'lumotni bo'lishishni xohlamagan o'quvchi-sportchi ham javob berganini o'zi bilmay qolsin) kompetensiyasi.

Ushbu kompetensiyaga ega trener-o'qituvchi:

✓ vaziyatni aniqlashtirish va qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan maxsus ma'lumotlarni tan oladi;

✓ ko'plab manbalarga murojaat qilgan holda katta miqdorda ishonchli ma'lumotlarni topadi;

- ✓ zarur bo'lganda hamkorlar uchun sun'iy dalillar keltiradi;

- ✓ o'quvchi-sportchilardan o'quv-mashq ishlari qanday ketayotganini

bilish, ularning muammolarini eshitish maqsadida tez-tez xabar olib turadi;

3- mavzu: Sportchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati. Didaktik, akademik, perseptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyati.

Reja

1.Sportchining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati

Tayanch iboralar Sportchi pedagog faoliyatida kasbiy refleksiyaning ahamiyati. Sportchi pedagogning didaktik, akademik, perseptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyati. Sportchi pedagogning imiji. Refleksiya, pedagogik nazokat, ijodkorlik, pedagogik texnika

Oliy ma'lumotli sportchi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponentlardan refleksiyadir.

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) pedagogning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlari, fikrlash, o'zini - o'zi nazorat qilish, bilish amaliyot jarayonida o'zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun – qoidalarini fikrlashga yo'naltirilgan faoliyatining nazariy shakli. Refleksiya - faqat sub'ektning o'z ruhiy holatini o'ylashi, bilishi va tushunishi, fikr yuritishi va uni tahlil qilishga moyilligi bilan bir qatorda , boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tahlillarini tushunishini aniqlab olishidir.

Refleksiya – pedagogning o'quv – mashq mashg'ulotlarini videokameralarga olishi va takroriy aks etishida o'z fikri harakatlari va holatlarini tahlil qilishda tashqaridan nazar solishi, o'zining nazariy va amaliy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash va tahlil qilib kelgusi mashg'ulotlarida bartaraf qila olishi ; Reflektiv jarayonlar: Ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili; Shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi ; O'z-o'zini va boshqalarni tushunish; O'z-o'ziga va boshqalarga baho berish; O'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilishi.

Refleksiya - muloqot jarayonida suhbatdoshning tasavvurini anglashga harakat qilish, ya'ni uning o'rnida turib o'ziga baho berishga harakat qilish, ya'ni bu ikkinchi shaxsning idrokiga taaluqli bo'lib o'ziga hamkasbining fikri bilan harakat qilish. Sportchi pedagog ijodiy faoliyati va shaxsiy maqsadlariga innovatsion yondoshuvda pedagogik, metodik, texnologik tayyorgarlikni jadal o'zlashtirilishi va o'quv – mashq jarayoniga tatbiq etish darajasi. Yangiliklarni o'zlashtirishda

qiyinchiliklar, ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shayligi va kasbiy faoliyatida novatorlik, mustaqillik, kreativlik, metodik faoliyati va uni takomillashtirishda intensiv, ekstensiv yondoshuvi, pedagogik innovatsiya va refleksiyaga bo'lgan qobiliyati va b.

Pedagogning shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon – e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob – axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o'qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi. Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda o'qituvchi-tarbiyachi(pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Pedagogik texnika – ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, **pedagogik muomala** – o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod – pedagogning mahoratini takomillashtirishda yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka elituvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni anglatib, o'qituvchining **pedagogik qobiliyati** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o'qituvchining aqliy, emoçional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o'qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmatini, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, o'qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yiligi, to'g'riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida **pedagogik nazokat (takt)** – o'qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yor va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Samimiylilik- atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Vatanparvarlik - ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Fidoiylilik. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.

Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste'dodning o'zi etarli emas, balki o'quvchilarga ideal shaxs sifatida tasavvur qila olishni ham bilishi kerak.

4 - mavzu: Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Reja

1. Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish

Tayanch iboralar Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish;

Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi:

Intensiv yo'l – Oliy ma'lumotli sportchi pedagogning pedagogik, metodik mahoratlari va texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishining motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda amalga oshirishi.

Motiv – insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarini bajarishga undovchi ijobiy sabablar yig'indisi. Shug'ullanuvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi. Motivatsion ko'nikma- shaxs motivlarining yig'indisi va shaxsning ijodiy ilmiy mehnatga layoqatligining eng muhim belgisi.

Ekstensiv yo'l – pedagog pedagogik va metodik faoliyatni takomillashtirishda qo'shimcha kuchlar – yangi modernizatsiya qilingan vositalar, jihozlar, texnologiyalardan mashqlar o'rgatish jarayonida maqsadli foydalanishi; Pedagogning kasbiy, metodik faoliyatida uning komponentlari, vazifalari, dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlarini o'rganish va professional treninglarning ilg'or texnologiyalari, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarni tanlash va qo'llash maqsadga muvofiqdir. (imitatsiya – lotincha imitatio- taqlid, o'xshash. imitator – biror narsaga o'xshatma)

Pedagogning ijodiy individualizmi: ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish; sport ta'limi jarayonida shaxsiy bilim, ko'nikma va malakalarini yangilab turish; samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish; trenerning o'z taqdirini o'zi belgilash va trenerlik faoliyatini namoyon (attrakciya) qila olishi;

Zamonaviy pedagogning tasnifi :Innovatsion metodologik faoliyati: Kreativ fikrlovchi, innovatsion, interfaol, loyihali ta'limni biladi. Sport ta'limining nazariy va amaliy trenerovkalarda innovatsion texnologiyalarni o'rganuvchi, jarayoniga qo'llovchi, tadqiqotchi, novator

Kasbiy mahorati : Sport ta'limi jarayonida strategiya va strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, o'quv – mashq jarayonini loyixalashtirish, innovatsion, kreativ faoliyatni tashkil etish, sport ta'limini boshqarish jarayonlariga tizimli yondoshuvlar, hamda boshqaruv usullari, metodlari va prinsiplaridan ijodiy, samarali foydalanishdagi kasbiy texnika darajasi. Tegishli

ruxsatnoma va ma'lumotga ega bilimdon, mahoratli, intellektual salohiyatli, raqobatbardosh, etarli bilim va malakaga ega mutaxassis. **Tarbiyaviy faoliyati:** Keng ma'noda shug'ullanuvchida tarbiyani amalga oshiruvchi yoki tashkil qiluvchi trener va tarbiya jarayonini boshqaruvchi shaxs. Tor ma'noda sport ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar, o'spirinlar orasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassis.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini maqsadli shakllantirish, milliy g'oyalarga sadoqat ruhida, sog'lom barkamol shaxs sifatida faol va ongli, Vatanga muhabbatli bo'lib voyaga etishlariga qaratiladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmunini ifodalovchi vosita va usullar majmui: mehribon, muloqotga kirishuvchan, emotional turg'un, bag'rikeng, adolatli, ma'naviyatli, o'z-o'zini nazorat etaoladigan, iymon-e'tiqodli, irodali mutaxassis. Shug'ullanuvchilarga ijtimoiy tajribasi, hulq - atvori, me'yorlarini singdirish jarayonida o'zaro birgalikdagi faoliyati, aniq harakat va vaziyatlarni tashkil etaoladigan shaxs, o'qituvchidir. **Tarbiyaviy munosabatlar** - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi doimiy munosabatlar, aloqalar, tajriba almashidan iborat bo'lib, ularni intellektual, jismoniy rivojlantirishda, mustaqil ma'lumot, sport sohasida ta'lim olish va o'zini - o'zi tarbiyalashni amalga oshirishga xizmat qiladigan jarayon.

Jismoniy tarbiyada innovatsion, pedagogik texnologiyaning komplekslik xususiyati - shug'ullanuvchi bilan o'rganilayotgan texnologik jarayon barcha elementlarining o'zaro aloqadorligini taqozo etadigan va uning mazmunini xilma - xilligi, ko'p omillardan iborat bo'lgan ijtimoiy - tarbiyaviy usullar majmui. **Pedagogik mahorati:** Kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; san'at darajasidagi mahorat; pedagogik kompetentlik, mohirlik, bilimdonlik; yangiliklarni o'rganishi va o'rgatishi; sport ta'limi jarayonini tashkil eta olish; shug'ullanuvchilar tanlagan sohalarini o'rganishda yoshi, fiziologik imkoniyatiga mos ichki his - tuyg'u, qiziqish ko'nikmasini shakllantirish; do'stona va samimiy munosabatda bo'lishi. **Texnologik mahorati:** Ishonchga kirish, ishontira olish; mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilish; nutq mahorati; qalbgaga yo'l topa olish; muloqotga kirishuvchanlikda kommunikativlik kabilar.

Pedagog ijodining rivojlantiruvchi funkuiyasi - jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga integrativ yondoshuv, shug'ullanuvchining intellektual, sezgirlik va o'z xohishi bilan intilish kabi jihatlarga erishganlik darajalarini o'z ichiga oladigan hodisa. O'qituvchi shug'ullanuvchilar faoliyatining pirovord natijasini bashorat qila olishi, uning strategiyasi, taktikasi, texnologiyasini avvaldan rejalashtirishi va hal etishini kafolatlashi; shug'ullanuvchi, ota - onalar, mahalla va homiylarni sport ta'lim muassasasi muammolariga jalb etaolishidir.

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ
МАТЕРИАЛЛАРИ

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

Pedagogning kasbiy kompetençiya va kreativligi moduli dasturida ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, modulning dolzarb masalalari tinglovchilarga mustaqil ta‘lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Mashg‘ulotlarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini ta‘minlashda, zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Pinbord”, “Aqliy hujum”, FSMU, “Loyixalash”, “Klaster”, “Bumerang”, “Matbuot konferençiyasi” singari metodlari orqali hamda slaydlar namoyishlari bilan o‘tkaziladi va mashg‘ulotlarda muqobil javob va ma‘lumotlar kompyuter va monitor vositalari yordamida taqdimot qilinadi

1- mavzu: Oliy ma‘lumotli sportchi pedagogning kreativ faoliyatiga qo‘yiladigan talab va vazifalar. Insonparvarlik.

Sportchi pedagog faoliyatning vazifalari va huquq va majburiyatlari. Sport bo'yicha o'quv - mashq mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablar. Pedagogning sport ta'limi jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik. Pedagogning sport mashg'uloti jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

Sportchi pedagogning pedagogik – psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar:

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan umumiy o'rta ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy - metodik asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagoglari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

1. Bolalarni sevisish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevisish;
2. Pedagogik – psixologik ziyoraklik va kuzatuvchanlik ;
3. Pedagogik takt;
4. Pedagogik tasavvur;
5. Tashkilotchilik qobiliyati;
6. Haqqoniylik;
7. Dilkashlik;
8. Talabchanlik;
9. Qat'iylik va maqsadga intilish;
10. Vazminlik;
11. O'zini tuta bilish;
12. Kasbiy layoqatlik.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni:

Ilmiy – metodik salohiyat, ma'naviy ehtiyoj va intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, bilim, ko'nikma va malakasini hamda pedagogik mahoratini oshirishga intilish kiradi. Quyidagilar pedagogik, psixologik faoliyatga tayyorlanganligining zarur va etarli darajasini ta'minlaydigan asosiy (fundamental) talablar hisoblanadi:

o'qitish (dars berish) mahorati;

tarbiyalash mahorati;

o'quv - tarbiya jarayonida insonparvarlashuv va ijtimoiylashuv omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;

ta'lim oluvchilarning bilimlarini holisona nazorat qilish va baholash mahorati.

O‘qitish (dars berish) mahorati quyidagi talablar bilan belgilanadi:

kasbiy tayyorgarlik, layoqat va eruditsiya;

psixologik-pedagogik tayyorgarlik;

ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga va yangi bilimlar olishga o‘rgatish mahorati;

o‘quv – metodik adabiyotlarni o‘rganish va foydalanish;

jismoniy tarbiya bo‘yicha zamonaviy o‘quv va mashq uskunalarini va kompyuter texnikasidan foydalanish;

yangi pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini egallaganlik, Internetning global tarmog‘i bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar;

pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;

ilmiy - pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;

jismoniy tarbiya fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini bilish;

predmetlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

ritorika va notiqlik san’ati asoslarini bilish;

Zamonaviy pedagogda quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak (so‘z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan pedagog tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi):

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o‘zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva, jargon soʻzlaridan holi boʻlib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos soʻzlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda oʻzga millatlarga xos soʻzlarni nooʻrin qoʻllanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, soʻkishda qoʻllaniladigan soʻzlar) hamda konqelyarizm (oʻrni boʻlmagan vaziyatlarda rasmiy soʻzlardan foydalanish) soʻzlaridan holi boʻlishi, oʻqituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli boʻlishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli soʻzlar, ibora va maqollar, matallar hamda koʻchirma gaplardan oʻrinli va samarali foydalana olish).

9. Oʻqituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofda qilarga oʻrnak boʻla olishi lozim.

Oʻqituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida oʻzida bir qator sifatning tarkib topishiga erishishi zarur.

Inson har doim oʻsish va rivojlanishda boʻlgani sababli shaxs kamolotiga taʼsir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy mohiyatini pedagoglar, pedagogik, psixologik faoliyati va mahoratini turli xil sharoitlarda va jamoalarda hamkasblari va shugʻullanuvchilar taʼsirida amalga oshiradi.

Insonparvarlik - insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi toʻgʻrisida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida gʻamxoʻrlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning shugʻullanuvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻz imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan toʻgʻri munosabatda boʻlish, shugʻullanuvchi va hamkasblar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirishda adolatlilik.

2-mavzu: Sportda taʼlim sifatini oshirishda pedagog kompetentligini takomillashtirishda: kasbiy mahorati, pedagogik texnika usullari, shaxsiy - kasbiy malakalari, tarbiyachi sifatidagi mahorati, hissiyotini boshqara olishi.

Taʼlim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yoʻllari. Taʼlim sifatini oshirishda pedagogning mahorati va shaxsiy – kasbiy malakalari. Sportchi pedagogning imiji.

Pedagoglar har tomonlama taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil etishi bilan birga oʻzlarining tashqi qiyofasiga ham eʼtibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, oʻzini namoyon qila olish, oʻziga ogʻdira olish va eʼtiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina isteʼdodining oʻzi etarli emas, balki oʻquvchilarga ideal shaxs sifatida tasavvur qila olishni ham bilishi kerak.

Oʻqituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati

Pedagogik imidj- pedagogning maʼnaviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi koʻrinishi oʻrtasidagi oʻzaro uygʻunlik va mutanosiblikdir.

Imidj -aniq bir insonga bo‘lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob’ekt qiyofasidir.

Lug‘aviy jihatdan **“imidj”** (ing. *“image”*) tushunchasi *“siymo”*, *“timsol”*, *“qiyofa”* va *“obraz”* ma’nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra esa ushbu tushuncha yordamida *“joziba”*, *“maftunkorlik”* ma’nolarini ifodalaydi.

O‘qituvchi imidji (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, ayol o‘qituvchilarda soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishi lozim.

1.Gavdani tutish-to‘g‘ri tutish(yurishda, o‘tirib turishda), qo‘llarning o‘qituvchi stolida erkin holatda bo‘lishi, batartibli, ixchamligi.

2.Kiyim- ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, rangning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko‘p va kamligi, ishiga mosligi.

3. Pardozning me’yordaligi, yoshi, kasbi va ishiga mosigi.

4.Prichyoska(sochning ma’lum bir tartibliligi).

5.Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi sport formasining vazifasi: issiqdan, sovuqdan himoya qilish emas, balki o‘ziga jalb etishni ham uddalashi kerak. Sport formasini kiyishi albatta, ozoda, yarashgan va sipo bo‘lishiga qarab o‘qituvchiga baho berilishi uning ishiga talabchanligi va ichki kamtarligi haqida ma’lumot beradi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ijobiy qiyofasi va jozibasini, o‘quvchilarga psixoterapevtik ta’sir o‘tkazadi hamda sport ta’limi samaradorligini oshiradi.

O‘zini reflektiv faoliyatini tahlil qilish va kelgusi

faoliyatini rejalashtirish;

Pedagogik refleksiya – pedagogning shaxs ongi mohiyati, vazifalari, qadriyatlarini, qiziqishlarini, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi.

Pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri o‘qituvchilar faolligini ta’minlash va mustaqil faoliyatini tashkil qilish bo‘lib, mazkur jarayonlar samaradorligi nafaqat ularning malakasini oshirishni tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta’limiy muhitni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini ularning mustaqil ta'limda olgan tushunchalari asosida tashkil etish va mazkur jarayonda ularni ijodiy fikrlashga undash asosida faolligini ta'minlash, shuningdek, ularda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlashda o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi va mustaqil o'rganishi uchun majburiy ta'limiy muhitni shakllantirish, ularning tushunchalari darajasini hamda o'zini-o'zi rivojlantirishga moyilligini o'rganish, tahlil qilish asosida mustaqil ta'lim olishga ularda qiziqishlarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

3 - mavzu: Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalanish.

Sport ta'limi tizimida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rganish va foydalanishga sportchining intensiv va ekstensiv yondoshuvi. Sport sohasida yaratilgan zamonaviy audio va video manbalardan, elektron o'quv - qo'llanmalardan foydalaniladi.

Bu mavzuda Evropa, Osiyo, Xitoy kabi davlatlarda yoshlarni tanlagan sport turlari bo'yicha o'quv – mashqlarning video mashg'ulotlari ko'rsatiladi va tinglovchilarning fikr – mulohazalari taxlil qilinadi.

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. Jismoniy tarbiya bo'yicha sportchi pedagogning vazifalari.
2. Sportchi pedagogning huquq va majburiyatlari
3. Sportchi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi
4. Sport o'quv - mashq mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar.
5. Kompetençiya va kompetentlik
6. Sportchi pedagog kompetençiyasining turlari
7. Sport ta'limi sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo'llari.
8. Sportchi pedagogning kasbiy kompetençiyasi.
9. Sportchi pedagogning shaxsiy kompetençiyasi.
10. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida innovatsion, interfaol texnologiyalardan foydalanish.

Y. GLOSSARIY

Assimilizatsiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko‘nikmalardan jiddiy o‘zgarishsiz foydalanish.

Autotrening – pedagog yoki trenerning o‘zini – o‘zi ishontirish va boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to‘plami.

Kompetentlilik - shaxsning ijtimoiy-professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi.

Kompetenūiya - lotincha **competere** degan so‘zdan olingan bo‘lib, *mos kelmoq* ma‘nosini beradi.

Kompetenūiya - olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati

Pedagogik faoliyat- jamiyatning ta‘lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya‘ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Bilim - haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganadilar va u ularning yutug‘i bo‘ladi.

Ko‘nikma – egallagan bilimlar asosida o‘zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Malakalar – bu, ko‘p marta takrorlash natijasidagi avtomatlashtirilgan (beixtiyoriy, refleks), harakatlardir.

Pedagogik jarayon - ta‘lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

Pedagogik mahorat - pedagogik jaraenni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning Yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsing ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik tizim – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo‘naltirilgan va pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni ko‘zlagan, o‘zaro bog‘liq vosita, usul, jarayonlarning yig‘indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir

“**Texnologiya**” yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib “*techne*” - mahorat, san‘at, malaka va “*logos*” - so‘z, ta‘limot ma‘nolarini anglatadi.

Ta‘limni texnologiyalashtirish – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta‘lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Pedagogik texnologiya – 1) (YuNESKO tashkiloti tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra ta‘lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarini hamda ularning o‘zaro ta‘sirini e‘tiborga olgan holda o‘qitish va o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimi. 2) **Pedagogik texnologiya** – pedagogik muvafaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixalash – tashkiliy majmuasi

Muammoli o‘qitish – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta‘lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Pedagogik faoliyat – ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Didaktika - talim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Ta‘lim olish – bu bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini egallash jarayonidir, ya‘ni bunda shaxsning ijodiy faoliyatining jihatlari, dunyoqarashi va o‘zini tutish sifatleri tashkil topadi, hamda bilish qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘qitish – bu ta‘lim oluvchilarga yangi o‘quv axborotini taqdim etish, uni o‘zlashtirishni tashkillashtirishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir.

Rivojlantiruvchi vazifa- o‘qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivojlanishi, bilishga bo‘lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlashdan iborat bo‘ladi.

Tarbiyalovchi vazifa – o‘qitishni tarbiyalash prinsipiga asoslanadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari o‘zviy bog‘liqlikda bo‘ladi.

Dasturlashtirilgan ta‘lim berish- bu g‘oya 1950 yillarda ilgari surilgan.

Dasturlashtirilgan ta‘lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o‘rgatuvchi dastur tashkil etadi. U butun o‘qitish jarayonini boshqaradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim- o'qituvchining asosiy vazifasi bilish mustaqilligi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, talabalarni o'quv faoliyatini tashkillashtirish hisoblanadi.

O'qitish mazmuni (o'qitish, ma'lumot olish)- ta'lim jarayonida egallashi zarur bo'lgan, ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

Ta'lim prinsiplari - bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy koidalar tizimidir.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

Ma'ruza- davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini bayon qilish.

Konseptsiya - umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari(TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarining mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Grafikli tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

Ta'lim shakllari (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Jamoaviy ish (kollektiv) - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) Ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

Bilimni tekshirish va baholash – ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u talabalaraning o'quv faoliyatini darsda, uyda og'zaki, yozma va amaliy topshiriqlar yordamida tizimli nazorat yo'li orqali amalga oshiriladi.

Maqsadni belgilash-didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

Tashxis - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini to'zish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Rejalashtirish - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik harita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro) - ta'lim luvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki ukuv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida kullanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. **Tarbiya nazariyasi** - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o'rganadi. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Bilish faoliyati- idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Biologik ehtiyojlar - bu - fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Ijtimoiy ustanovkalar - Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Ijtimoiy ehtiyojlar - bu - mehnat qilish, bilish, estetik va ahloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Kasbiy bilimdonlik- pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi.

Kasbiy tayyorgarlik- bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy tayyorgarligi.

Ko'nikma-o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Madaniyat – “jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi”.

Malaka- shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyati.

Mahorat- shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Metod – yunoncha atama bo'lib – aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

Metod- 1)tabiiy va ijtimoiy hayot xodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2)harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika- biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

Metodologiya- 1)dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2)biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo'llaniladigan metodlar.

Monolog - ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi - talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Odob – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Pedagogik jarayon- ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik malaka- muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasi.

Pedagogik mahorat- U pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, hamda pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezidir.

Pedagogik jarayon- 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

VII PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENÇIYA VA KREATIVLIGI

MODULI BO'YICHA TESTLAR

1. . Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?

A) Pedagogning kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar egallanishi

B) Axborot muhitida ma'lumotlarni izlash, yig'ishi;

V) Pedagogik jarayonni takomillashtirishi;

G) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishga e'tibori.

2. "Kompetentlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

A) Pedagoglik lavozimga munosib, kasbining mohir, raqobatbardosh shaxsiga xos sifat.

B) Bilimli bo'lish qobiliyati;

V) Real ob'ektlar doirasiga oid bilimli shaxs;

G) Ta'lim sohasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma.

3. Kasbiy kompetentlik nima va u qanday holatlarda namoyon bo'ladi?

A) Pedagogning mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi;

B) Ta'lim kompetençiyasi o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi;

V) O'qish davrida kasbiy kompetençiyasi namoyon bo'ladi;

G) O'zining shaxsiy o'rganish usullariga amal qilishda namoyon bo'ladi;

4. Pedagogning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni qanday?

A) Yoshlarni ma'naviy ta'lim - tarbiyasi, kasb - hunar egallashlariga ko'maklashadi va jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy vazifalarga yo'naltiradi;

B) Yoshlarga, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi;

V) Ijtimoiy hayotda pedagog yosh avlodga o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzularni o'rgatish bilan shug'ullanuvchi shaxs;

G) Davlat ta'lim standartlari talablarida ta'lim - tarbiya beradi.

5. "Mahorat" tushunchasi qanday ma'no anglatadi?

A) Pedagogning mohirlik, ustalik, epchilligi;

B) Pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish;

V) Pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish;

G) Ta'lim jarayoniga psixologik yondoshuv.

6. "Pedagogik mahorat" tushunchasi qanday ma'no anglatadi?

A) Pedagog tomonidan kasbiy faoliyatini ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishi;

B) Pedagogning o'quv fanini puxta egallanganligi;

V) Pedagogning shaxsiy sifatlari;

G) Ta'lim berish va baholash faoliyati.

7. Pedagogning kompeteniyaviy xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri?

A) Kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus;

B) Ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy;

V) Umumiy va umumo'quv ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlari;

G) O'rganilayotgan borliq haqidagi umummadaniy bilimlari.

8. Insonparvarlik tuyg'ulari qaysi javobda to'g'ri bayon qilingan?

A) Insonning taqdiri, qadri, erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilish;

B) Hamkasblari va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish;

V) milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

G) O'quvchi, ota – onalar bilan munosabatda do'stona, vijdonlilik.

9. Samimiylik tushunchasi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

A) Atrofdagi insonlar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlar;

B) Sog'lom turmush tarziga amal qilish;

V) Bag'rikenglik, ma'suliyatlilik, moslashuvchanlik;

G) O'z-o'zini tahlil qilish va rivojlantirish, kamchiliklarini tuzatish;

10. Pedagogik nazokat tushunchasi...

A) Har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan foydali, qimmatli qo'llaniladigan harakatlarning me'yori va vositasining chegarasi;

B) Pedagogik fikrlash, talablar asosida ish tutish;

V) Faoliyatida pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish;

G) Ta'lim-tarbiyaga doir yangi g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olish.

9. Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan iborat?

A) Kasbiy layoqati, iste'dodi, metodikasi;

B) Kasbiy ko'nikmalari;

V) Pedagogik mohirligi;

G) Bilimdonligi.

10. Pedagogik bilimdonlik asosiy shakllari nima?

A) Kasbiy- metodik faoliyatini ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va DTS ga muvofiq tashkil etishi;

B) Pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari;

V) Mutaxassislik bilimini DTS bo'yicha egallanganligi;

G) Kasbiy tayyorgarlik darajasi ;

11. Pedagogik odobning asosiy shakllari?

A) O'qituvchi o'ziga, kasbiga, jamiyatga, o'quvchilarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatlarga qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi ;

B) Pedagog tomonidan o'quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga o'zining sub'ektiv munosabati;

V) Pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'zlashtirilgan, bilim, ko'nikma va malaka majmui;

G) Pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni zamon talablari asosida tashkil etishi;

12. Mimika tushunchasini qanday izohlaysiz?

A) Pedagog his-hayajonining ifoda etishi, ko'z, qosh, yuz mushaklarining, ma'noli harakatlarining so'zlayotgan nutqiga mosligi;

B) O'z fikrlarini, kayfiyati, bildirish maqsadi;

V) Pedagog mimikasining tarbiyaviy ahamiyati – o'quvchi javobidan pedagogning qoniqmasligi;

G) Pedagog munosabatlari ,o'quvchi javoblaridan qoniqish, xursand bo'lishi;

13. Pantomimika tushunchasi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

A) Pedagogning qo'l,oyoq, gavda harakatlari: yurish, qadam tashlash, erkin harakat qilish, jestlar va boshqalar;

- B) Ayrim hollarda qo‘llari , boshini uyoq-buyoqqa tashlash;
- V) O‘qituvchining turli imo - ishoralari;
- G) O‘qituvchining o‘quvchilar oldidagi qo‘pol harakatlari.

14.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida tarbiya maqsadi qanday izohlangan?

- A) **Barkamol va ishbilarmon shaxslarni tarbiyalash;**
- B) Har jixatidan erkin shaxsni tarbiyalash;
- C) Vatanparvar fuqoroni tarbiyalash;
- D) Tadbirkorni tarbiyalash.

15. Pedagogning kasbiy, metodik faoliyatini takomillashtirishning intensiv yo‘li qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A) **Motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda;**
- B) Pedagogik kengash yig‘ilishlarida yoki shaxsiy reja asosida;
- V) Tegishli ma’lumoti bo‘yicha malaka oshirish kurslarida;
- D) Konferençiya, seminarlarda ishtirok etish.

16.Pedagogning kasbiy, metodik faoliyatini takomillashtirishning ekstensiv yo‘li qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A) **Yangi modernizatsiya qilingan vositalar,jihozlar, texnologiyalardan maqsadli foydalanish;**
- B) Ta’lim muassasada mavjud bo‘lgan texnik vositalar,jihozlardan maqsadli foydalanish;
- V) Hamkasblarining ilg‘or tajribalaridan ijobiy foydalanish;
- D) Malaka oshirish kurslaridagi modullarni o‘zlashtirib maqsadli foydalanish;

17.Pedagogning kasbiy, metodik faoliyatini takomillashtirish yo‘llari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) **Intensiv, ekstensiv asosida;**
- B) Induvidual, motivatsiya asosida;
- V) Jamoaviy, hamkasblar tajribasi asosida;

D) Kasbiy refleksiya asosida;

18. Motiv nima?

A) O'quvchini o'qishga, muayyan ijobiy harakatga undash;

B) O'quvchining bajargan ishining baholash;

V) O'quvchini biror ishni bajarishga undash;

D) Pedagogning kasbiy faoliyati;

19. Ijtimoiy – psixologik metodlar bu ...

A) O'quvchilar jamoasida sog'lom, bilim olish muhitni yaratish, ma'naviy rag'batlantirish ishlari;

B) Ta'limda va ta'limdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar;

V) Muassasada o'quvchilar bilan ishlash masalalari;

D) Muammoli o'quvchilar bilan ishlash;

20. Pedagogning kreativ faoliyati bu ...

A) O'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi;

B) Faqat ko'rsatma, buyruqlarni bajarish;

V) O'z sohasidagi vazifalarni bajarish;

D) Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish.

Yakuniy suhbat savollari

1. Sportchi pedagogning metodik mahorati.

2. Pedagogik texnika.
3. Nutq texnikasi va madaniyati.
4. Pedagogik qobiliyat va uning turlari.
5. Sportchi pedagogning jismoniy tarbiya jarayonidagi kasbiy mahorati.
6. Tarbiyaning shaxs shakllanishidagi roli.
7. O‘quvchi shaxsining shakllanishiga tashqi muhitning ta’siri.
8. O‘quvchi shaxsining shakllanishida tarbiyaning roli.
9. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya va uning turlaridan foydalanish
10. Pedagog kompetençiyasining turlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston STRATEGIYASI . Toshkent: O‘zbekiston.
– 2022y. 458 b. 2.
- Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.
4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>

2.O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.04.09.2015y

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658–sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2012.-110 b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Akramov A.K. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. T., 1997y.
4. Abdumalikov R. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixinio'rganish masalalari. T., Bilim, 1994y.
5. A. Akmalov Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsion va interfaol texnologiyalar . uslubiy qo'llanma., "Umid Design" T.: 2022y. 70 b.
6. Djurayev R. X., Tolipov O'. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI. - 2008. 125 b.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi., Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, T.: Sharq, 204y. 335b.
8. Zunnunov A. va boshqalar O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan, 1996. – 350 b
9. Salamov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, Darslik – Toshkent, 2015.y.
10. Munavvarov A.Q. taxriri ostida ."Pedagogika" darslik - T.: O'qituvchi, 1996y .- 200b.
11. Yo'ldoshyev J.G'. Xorijda ta'lim -Toshkent: Sharq, 1995.-92 b.
12. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi - 2006.- 345
13. Pod redakciyey P.I. Pidkasistogo. "Pedagogika", uchebnik- M.: 2004. 604.str.
14. Xoshimov K., Ochilov., O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: "O'qituvchi" 1995y. 460b.
15. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.- 352 b.
16. Eshnazarov J. Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish . T., 2008y.
17. Belousova V.V., Resheten N.N., taxriri ostida Pedagogika, Fizkultura institutlari uchun darslik, T.: O'qituvchi 1983y. 302b.
18. Xo'jaev F. . O'zbekistonda jismoniy tarbiya. T., O'qituvchi, 1997y.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. www.minsport.uz
2. www.uzedu.uz

3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.uz-djti.uz
5. www.sportedu.uz
6. www.olympic.uz
7. www.ziyonet.uz.
8. www.infocom.uz.
9. www.edu.uz